MAIŞIY TEXNIKA IMPORTIDA XAVFLARNI BOŞQARIŞNING RAQAMLI INTEGRATSIYAGA ASOSLANGAN MEXANIZMI VA UNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Kuşmanova Mahbuba Abdunabiyevna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toşkent axborot texnologiyalari universiteti «Kompyuter injiniringi» fakulteti «Raqamli texnologiyalar konvergensiyasi» kafedrasi katta öqituvçisi
E-mail: mahbuba.kushmanova@gmail.com; ORCID: 0009-0002-5662-3250

Annotatsiya. *Özbekistonda bojxona xavflari asosan taşqi savdo iştirokçisi darajasida baholanadi, maişiy texnika importida esa xavf tovar modeli va narx darajasida farqlanadi. Bu segmentda joriy etilgan rasmiy diler talabi hozirça qoğoz hujjat orqali tasdiqlanadi. Maqolada şu boşliqni yopiş uçun rasmiy dilerlar reyestri, QR raqamli markirovka va tovar modeli darajasidagi bojxona qiymati narx bazasini birlaştiruvçi taşkiliy-iqtisodiy mexanizm taklif etilgan. Tadqiqot maqsadi şu mexanizmni işlab çiqiş va uni ta’minlovçi investitsiyalarning budjetga qaytimini baholaşdir. Tadqiqotda tizimli yondaşuv, qiyosiy tahlil, diskontlangan pul oqimlari va sezgirlik tahlili usullari qöllanilgan. Mexanizm subyektlar, ma’lumotlar, qaror qabul qiliş va natijani nazorat qiliş qatlamlaridan iborat. U nazorat qarorini importyor taqdim etgan hujjatdan uçta mustaqil ma’lumot manbasiga köçiradi va QR kod orqali tekşiruvni içki savdo bosqiçigaça uzaytiradi. Mexanizmni amalga oşiruvçi uç raqamli çora-tadbir portfelining samarasi diskontlangan pul oqimlari usulida, budjet nuqtai nazaridan baholangan. Portfel narx bazasi bilan sun’iy intellektli xavf tahlili, elektron plomba va GPS kuzatuv hamda diler reyestrini QR markirovka bilan birlaştirişdan iborat. 185,0 mlrd söm investitsiya beş yilda 207,2 mlrd söm sof diskontlangan daromad beradi, rentabellik indeksi 2,12 ga, qoplaniş muddati 2,21 yilga, içki daromad me’yori 46,3 foizga teng. Eng yuqori natija sun’iy intellektli xavf tahlili va narx bazasida kuzatilgan. Sezgirlik tahlili körsatişiça, diskont stavkasi 18 foizgaça oşib, foyda 20 foizga kamaygan holatda ham sof diskontlangan daromad 80,4 mlrd söm darajasida ijobiy qoladi, portfel uçun foydaning kritik kamayişi esa 43,4 foiz. Maqolada çora-tadbirlarni 2027-2029-yillarda bosqiçma-bosqiç joriy etiş tartibi hamda 2030-yilgaça segment darajasidagi maqsadli körsatkiçlar tizimi taklif etilgan. Natijalardan Bojxona qömitasi raqamlaştiriş loyihalarini tanlaşda va ularni moliyalaştiriş navbatini belgilaşda foydalanişi mumkin.*

Kalit sözlar: *bojxona xizmati, xavflarni boşqariş, raqamlaştiriş, rasmiy diler reyestri, raqamli markirovka, narx bazasi, sof diskontlangan daromad, rentabellik indeksi, sezgirlik tahlili, maişiy texnika.*

KIRIŞ

Özbekistonda bojxona xizmatini raqamlaştiriş davlat siyosatining ustuvor yönalişlaridan biri. Prezidentning 2026-yil 26-yanvardagi tabrigida 2025-yilda xavflarni oldindan tahlil qiliş natijasida 7 trln söm undirilgani, biroq deklaratsiyalarning atigi 20 foizi inson omilisiz rasmiylaştirilgani qayd etilgan [1]. PF-57-son Farmonda «Xavflarni boşqariş» axborot tizimida «Toifalaş» modulini yaratiş va xavf darajasi past deklaratsiyalarni töliq avtomatik rasmiylaştiriş vazifasi qöyilgan [2]. PQ-122-son qarorda yaşil, sariq, qizil va kök yölaklarni joriy etiş hamda sun’iy

intellekt bölinmasini taşkil etiş [3], PF-250-son Farmonda esa 2027-yilgaça bojxona auditi qamrovini 30 foizga yetkaziş belgilangan, şu hujjatda bojni 120 kungaça keçiktiriş imkoniyati ham nazarda tutilgan [4]. Bu hujjatlarning umumiy yönalişi aniq: köriklar kamayadi, nazorat esa ma’lumotlar tahliliga va keyingi auditga köçadi.

Biroq amaldagi tizimda xavf asosan taşqi savdo iştirokçisi darajasida baholanadi. Maişiy texnika segmentida esa xavf tovar modeli va narx darajasida farqlanadi: bitta TIF TN pozitsiyasi içida narx brend, quvvat va energiya samaradorligi sinfiga qarab özgaradi. 2025-yilning yetti oyida faqat muzlatgiç, kir yuviş maşinasi va konditsioner böyiça 893,7 ming dona import qilingan. Muallifning oldingi hisob-kitoblariga köra, segment böyiça qonuniy va samarali tölov yuklamasi örtasidagi farq kamida 22,7 foiz band, qöşimça fiskal salohiyat esa 63,3 mln AQŞ dollari. PQ-15-son qaror bilan joriy etilgan rasmiy diler talabi [5] hozirça qoğoz hujjat orqali tasdiqlanadi va bojxona ma’lumotlari bilan avtomatik soliştirilmaydi. Tovar modeli darajasidagi narx bazasi yöqligi sababli deklaratsiyadagi qiymatni model böyiça tekşiriş imkoni çeklangan, tovar çegaradan ötgandan keyin esa uning içki savdodagi harakati bojxona ma’lumotlari bilan boğlanmaydi.

Ilmiy muammo şundan iboratki, nazorat qarori hali ham importyorning özi taqdim etgan hujjatga tayanadi, raqamli tizimlarga ketadigan xarajatlar va ularning budjetga qaytimi esa tovar segmenti kesimida hisoblanmagan. Raqamlaştiriş loyihalari köpinça kutilayotgan fiskal natija bilan asoslanadi, investitsiya hajmi va qoplaniş muddati esa oçiq qolib ketadi. Bundan taşqari, raqamli loyihalar foydasining bir qismi nomoddiy bölib, uni tölov tuşumi bilan töliq ölçab bölmaydi. Bunday hisobsiz qaysi loyihani birinçi navbatda moliyalaştiriş kerakligini aniqlaş qiyin.

Maqolaning maqsadi maişiy texnika importida xavflarni boşqarişning raqamli integratsiyaga asoslangan mexanizmini işlab çiqiş va uni ta’minlovçi çora-tadbirlarning iqtisodiy samaradorligini NPV, rentabellik indeksi, qoplaniş muddati va IRR körsatkiçlari bilan baholaşdan iborat. Buning uçun quyidagi vazifalar qöyilgan: amaldagi xavflarni boşqariş tartibining maişiy texnika segmentidagi çeklovlarini aniqlaş; rasmiy diler reyestri, QR markirovka va narx bazasini birlaştiruvçi mexanizm tuzilmasini işlab çiqiş; mexanizmni amalga oşiruvçi uç raqamli çora-tadbirning samaradorlik körsatkiçlarini hisoblaş; natijalarning diskont stavkasi va foyda özgarişiga sezgirligini tekşiriş; 2025-2030-yillar uçun maqsadli körsatkiçlar tizimini taklif etiş.

Tadqiqot obyekti maişiy texnika importida bojxona xavflarini boşqariş tizimidir. Tadqiqot predmeti xavflarni boşqarişni raqamli integratsiyalaş bilan boğliq taşkiliy-iqtisodiy munosabatlar va bu jarayonga kiritiladigan investitsiyalar samaradorligidir. Tadqiqot gipotezasiga köra, nazorat qarorini importyor hujjatidan mustaqil ma’lumot manbalariga köçiriş uçun kerak bölgan investitsiyalar beş yillik muddatda, hatto noqulay şaroitda ham, özini qoplaydi. Hisob-kitoblarda 2025-yil bazaviy ma’lumotlari va beş yillik baholaş muddati olingan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi şundaki, xavfni baholaşni taşqi savdo iştirokçisi darajasidan tovar modeli va narx darajasiga tuşiruvçi tört qatlamli mexanizm taklif etilgan, uni amalga oşiruvçi raqamli çora-tadbirlar portfelining samaradorligi esa tovar segmenti böyiça budjet nuqtai nazaridan baholangan. Natijalardan Bojxona qömitasi

raqamlaştiriş loyihalarini tanlaşda va ularni joriy etiş navbatini belgilaşda foydalanişi mumkin. Taklif etilgan maqsadli körsatkiçlar esa mexanizm natijasini har yili kuzatib boriş imkonini beradi.

ADABIYOTLAR ŞARHI

Xavf tahlilini statistik usullar bilan kuçaytiriş xorijiy bojxona amaliyotida sinovdan ötgan. A.-M. Geourjon, B. Laporte va hammualliflar Senegal bojxonasi ma’lumotlarida deklaratsiyalarni ballaş tizimini orqaga qaytib sinab körgan. Ularning hisobiga köra, ma’lumotlarni intellektual tahlil qiliş körik hajmini qisqartirgan holda aniqlanadigan qoidabuzarliklar uluşini oşiradi. Mualliflar xavf tahlilini rivojlanayotgan mamlakatlar bojxona ma’muriyatlari uçun zarur vosita deb hisoblaydi [6]. Ammo ularning modeli barça tovarlar uçun umumiy. Maişiy texnika kabi brend, model va energiya samaradorligi sinfi böyiça alohida narx diapazoniga ega tovarlar esa segment modelini talab qiladi.

Raqamli investitsiyalar samarasini baholaşda ikki qiyinçilik bor. Birinçisini E. Brynjolfsson va L. Hitt körsatgan: axborot texnologiyalariga kiritilgan investitsiyalar foydasi köpinça nomoddiy bölib, taşkiliy özgarişlar bilan birga yuzaga çiqadi [7]. Ikkinçisi foyda farazlaridagi ortiqça optimizm bilan boğliq. Buyuk Britaniya Ğaznaçiligining «Yaşil kitob» qöllanmasi davlat loyihalarini sof joriy qiymat mezoni bilan baholaşni va bu optimizmni sezgirlik tahlili orqali tekşirişni talab qiladi [8]. Demak, raqamli loyihani baholaşda faqat bitta bazaviy hisob bilan çeklanib bölmaydi.

Özbekistonlik tadqiqotçilardan A.R. Muqimov budjet daromadlarini oşirişning ustuvor yönalişlari qatorida bojxona ma’muriyatçiligini töliq raqamlaştirişni [9], A.A. Aktamov esa keyingi bojxona auditini raqamli analitika asosida modernizatsiya qilişni [10] taklif etgan. Z. Bobojonova samaradorlikni oşirişning integratsion mexanizmini boşqa tarmoqda, «Özbekiston temir yöllari» AJ misolida singulyar va amaliy iqtisodiyot asosida işlab çiqqan [11]. Taklif etilayotgan mexanizmda ham xuddi şunday, turli idoralar ma’lumotlari bitta boşqaruv sxemasida birlaştiriladi.

Xorijiy işlar xavf tahlili usulini va investitsiyani baholaş qoidalarini beradi, ammo ular alohida tovar segmentiga moslaştirilmagan. Mahalliy işlarda esa bojxona sohasidagi raqamlaştiriş asosan fiskal natija vositasi sifatida körilgan: xarajatlar, qoplaniş muddati va tovar segmenti böyiça investitsiya hisobi berilmagan. Uşbu maqolada şu boşliq maişiy texnika segmenti misolida töldiriladi.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda tizimli yondaşuv, qiyosiy tahlil, diskontlangan pul oqimlari va sezgirlik tahlili usullari qöllanildi. Diskontlangan pul oqimlari usuli «Yaşil kitob» tavsiyasiga muvofiq tanlandi [8], çunki u turli yillarda foyda beradigan loyihalarni bitta körsatkiç bilan soliştiriş imkonini beradi. Raqamlaştiriş çora-tadbirining iqtisodiy samaradorligi[183] budjet nuqtai nazaridan baholandi. Foyda tarkibiga qöşimça undiriladigan tölovlar va tejalgan vaqtning muallif tomonidan baholangan qiymati

[183]Raqamlaştiriş çora-tadbirining iqtisodiy samaradorligi deganda çora-tadbir hisobiga qöşimça undirilgan bojxona tölovlari va taşqi savdo iştirokçilari tejagan vaqt qiymatining diskontlangan yiğindisi investitsiya va joriy xarajatlardan oşişi hamda tegişli BXSI blokining maqsadli qiymatga yaqinlaşişi tuşuniladi (muallif ta’rifi).

kiritildi. Hisob-kitoblar uçun Prezident tabrigidagi 2025-yil körsatkiçlari [1], amaldagi normativ hujjatlar [2-5] va muallifning segment böyiça oldingi hisob-kitoblari asos qilib olindi. Sof diskontlangan daromad[184], rentabellik indeksi va qoplaniş muddati quyidagiça hisoblandi:

$$NPV = \Sigma_{t=1\ldots T}\,(B_t - C_t) / (1 + r)^t - I_0, \quad PI = (NPV + I_0) / I_0, \tag{1}$$


$$PP = n + [I_0 - \Sigma_{t=1\ldots n}\,(B_t - C_t)] / (B_{n+1} - C_{n+1}), \tag{2}$$

bu yerda B_t t-yildagi foydani, C_t joriy xarajatni, I_0 boşlanğiç investitsiyani (mlrd söm), r diskont stavkasini bildiradi. Bazaviy hisobda $r = 0{,}14$ olindi, bu Markaziy bank asosiy stavkasiga yaqin qiymat. Baholaş muddati $T = 5$ yil, n esa yiğma sof foyda investitsiyadan kam bölgan oxirgi töliq yil. Içki daromad me’yori (IRR) $NPV = 0$ şartidan ketma-ket yaqinlaşiş usuli bilan topildi. Axborot tizimlari tez eskiradi, şu sababli baholaş muddati beş yil bilan çeklandi va qoldiq qiymat hisobga olinmadi.

Sezgirlik tahlilida diskont stavkasining 18 foizgaça oşişi va foydaning 20 foizga kamayişi körib çiqildi. Foydaning kritik kamayişi deb NPV nolga teng böladigan foyda pasayişi qabul qilindi. Investitsiya, foyda va xarajat parametrlarini muallif segment hajmi va fiskal salohiyatdan kelib çiqib, konservativ tarzda belgiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mexanizm tuzilmasi. Taklif etilayotgan mexanizm tört qatlamdan iborat (1-rasm). Subyektlar qatlamida Bojxona qömitasi koordinator vazifasini bajaradi. «Özeltexsanoat» uyuşmasi işlab çiqaruvçilar va rasmiy dilerlar haqidagi ma’lumotni, texnik jihatdan tartibga soliş organi va sinov laboratoriyasi muvofiqlik va energiya samaradorligi natijalarini, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Soliq qömitasi içki muomala ma’lumotlarini beradi. Ma’lumotlar qatlami diler reyestri, sertifikat bilan boğlangan QR markirovka[185] va tovar modeli darajasidagi narx bazasidan tuzilgan.



1-rasm. Maişiy texnika importida xavflarni boşqarişning raqamli integratsiyaga asoslangan mexanizmi[186]

[184]Sof diskontlangan daromad (NPV) loyiha butun muddatidagi sof foydaning diskont stavkasi böyiça bugungi qiymatga keltirilgan yiğindisidan boşlanğiç investitsiyani ayirib topiladi.
[185]Raqamli markirovka bu har bir tovar birligiga unikal identifikatsiya kodi (QR kod) berib, uning işlab çiqarilişi yoki importidan çakana sotuvigaça bölgan harakatini axborot tizimida kuzatiş tizimi.
[186]Muallif işlanmasi.

Qaror qabul qiliş qatlamida bu ma’lumotlar sun’iy intellektli xavf tahlili moduliga uzatiladi. Reyestrda bor, markirovkasi va sertifikati tasdiqlangan, narxi bazadagi oraliqqa tuşadigan partiya köriksiz çiqariladi. Qolgan partiyalar körik va qiymat tekşiruviga yuboriladi. Nazorat qatlamida keyingi audit ikkala yölakdan ötgan partiyalar böyiça tölovlar töliq undirilganini tekşiradi, çakana savdodagi QR kod va elektron hisob-faktura esa import deklaratsiyasidagi aniq partiyaga boğlanadi. Import qilingan va sotilgan dona soni örtasidagi farq kam baholaş yoki norasmiy importning bilvosita belgisi sifatida narx bazasi va xavf profiliga qaytariladi. Amaldagi va taklif etilgan tartib örtasidagi farqlar 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval.

Maişiy texnika importida amaldagi va taklif etilgan nazorat tartibining qiyosiy tavsifi[187]

Jihat	Amaldagi tartib	Taklif etilgan mexanizm
Xavfni baholaş darajasi	Taşqi savdo iştirokçisi («Toifalaş» moduli)	Iştirokçi + tovar modeli va narx darajasi
Diler maqomi	Hujjat orqali tasdiqlanadi	Reyestrdan avtomatik olinib, deklaratsiya bilan soliştiriladi
Nazorat çegarasi	Asosan çegarada yakunlanadi	QR kod orqali içki savdo bosqiçida davom etadi
Natija ölçovi	Asosan tölov tuşumi	Fiskal, nazorat va raqamli xizmat körsatkiçlari (BXSI bloklari)

Mexanizm qonuniy yöldan yuradigan importyor uçun iqtisodiy rağbat yaratadi. Reyestrga kiritilgan va ma’lumotlarini oldindan taqdim etgan diler yaşil yölak, keyingi audit va PF-250-son Farmonda nazarda tutilgan bojni 120 kungaça keçiktiriş imkoniyatidan birinçi navbatda foydalanadi [4]. Mahalliy işlab çiqaruvçilarning butlovçilar importi alohida xavf profilida yuritiladi, bu PQ-15-son qarordagi imtiyozlarning notöğri qöllanişi xavfini kamaytiradi [5].

Çora-tadbirlarning iqtisodiy samaradorligi. Mexanizm uçta raqamli çora-tadbir orqali amalga oşiriladi: (1) TIF TN 8415-8528 pozitsiyalari uçun sun’iy intellektli (SI) xavf tahlili va bojxona qiymati narx bazasi; (2) tranzitdagi maişiy texnika yuklari uçun elektron plomba va GPS kuzatuv; (3) işlab çiqaruvçi va dilerlar reyestrini QR markirovka bilan birlaştiriş. Ularning parametrlari va samaradorlik körsatkiçlari 2-jadvalda berilgan.

2-jadval.


Raqamlaştiriş çora-tadbirlarining parametrlari va samaradorlik körsatkiçlari (r = 14%)[188]

Çora-tadbir	I_0, mlrd söm	$B_1…B_5$, mlrd söm	C_t, mlrd söm	NPV, mlrd söm	PI	PP, yil	IRR, %
1. SI xavf tahlili va narx bazasi	85,0	40; 70; 90; 95; 100	12,0	131,7	2,55	1,98	56,6

[187]Muallif işlanmasi ([2; 3; 5] asosida).
[188]Muallif hisob-kitoblari; investitsiya, foyda va joriy xarajat muallif tomonidan baholangan.

2. Elektron plomba va GPS kuzatuv	60,0	20; 35; 45; 50; 50	8,0	43,0	1,72	2,57	35,6
3. Diler reyestri va QR markirovka	40,0	15; 25; 30; 32; 35	5,0	32,6	1,82	2,40	38,8
Portfel (jami)	**185,0**	**75; 130; 165; 177; 185**	**25,0**	**207,2**	**2,12**	**2,21**	**46,3**

Uçala çora-tadbirning NPV si ijobiy. 185,0 mlrd sömlik investitsiya beş yilda 207,2 mlrd söm NPV beradi: diskontlangan holda har bir investitsiya qilingan söm 2,12 söm qaytaradi. Beş yillik diskontlanmagan sof foyda 607 mlrd söm, uning diskontlangan qiymati 392,2 mlrd söm. Portfel 2,21 yilda, ya’ni baholaş muddatining yarmidan kamroq vaqtda özini qoplaydi (2-rasm). Eng yuqori natija birinçi çora-tadbirda kuzatiladi (NPV 131,7 mlrd söm, PI 2,55, qoplaniş 1,98 yil). Uçinçi çora-tadbirning NPV si ikkinçisidan 10,4 mlrd söm kam, lekin investitsiya kiçikroq bölgani uçun uning rentabellik indeksi yuqoriroq (1,82).




2-rasm. Raqamlaştiriş portfelining yiğma sof foydasi va qoplaniş muddati[189]

Foyda parametrlari ataylab konservativ olingan. Birinçi çora-tadbirning yillik foydasi (40-100 mlrd söm) 2025-yilda xavflarni oldindan tahlil qiliş hisobiga undirilgan 7 trln sömning [1] 0,6-1,4 foizi, beşinçi yildagi foydasi esa segmentning 796,4 mlrd sömga baholangan fiskal salohiyatining taxminan 12,6 foizi. Foyda 2025-yilgi segment hajmidan kelib çiqib belgilangan, import ösişi hisobga olinmagan.

Sezgirlik tahlili. Natijalarning ikki salbiy omilga sezgirligi 3-rasmda körsatilgan. Diskont stavkasi 18 foizgaça oşganda portfel NPV si 40,9 mlrd sömga, foyda 20 foizga kamayganda esa 95,6 mlrd sömga kamayadi. Natija stavkadan köra foyda farazlariga köproq boğliq. Ikki omil bir vaqtda ta’sir qilgan eng noqulay holatda portfel NPV si 80,4 mlrd söm, rentabellik indeksi 1,43, qoplaniş muddati 2,66 yil bölib qoladi.

[189]Muallif hisob-kitoblari (2-jadval hamda (1) va (2) formulalar asosida).



3-rasm. Çora-tadbirlar NPV sining diskont stavkasi va foyda özgarişiga sezgirligi[190]

Foydaning kritik kamayişi birinçi çora-tadbir uçun 51,1 foiz, uçinçisi uçun 36,3 foiz, ikkinçisi uçun 32,9 foiz, portfel uçun 43,4 foiz. Noqulay holatda ikkinçi çora-tadbirning rentabellik indeksi 1,14 gaça tuşadi, bu uç çora-tadbir orasidagi eng past körsatkiç.

Maqsadli körsatkiçlar. Mexanizm natijasini ölçaş uçun segment darajasidagi maqsadli körsatkiçlar tizimi işlab çiqildi (3-jadval). Har bir körsatkiç mexanizmning bitta elementi va ijroçisiga biriktirilgan.

3-jadval.

Maişiy texnika importi böyiça mexanizmning maqsadli körsatkiçlari[191]

Yil	Inson omilisiz rasmiylaştiriş, %	Körik uluşi, %	Samarali yuklama, %	Qöşimça tölov, mln dollar	Raqamli xizmat bloki	BXSI
2025	20	21	12,8	0,0	0,396	0,718
2026	40	19	13,0	0,6	0,410	0,738
2027	45	17	13,5	2,0	0,450	0,758
2028	50	15	14,0	3,3	0,500	0,778
2029	55	14	14,5	4,7	0,550	0,798
2030	60	13	15,0	6,1	0,600	0,818

Inson omilisiz rasmiylaştiriş uluşi 2025-yildagi 20 foizdan 2030-yilda 60 foizga, ya’ni 3 baravar oşişi, körik uluşi esa 21 foizdan 13 foizgaça kamayişi közda tutiladi. Samarali yuklamani 15,0 foizga yetkaziş atigi 6,1 mln dollar qöşimça tölov beradi, bu 63,3 mln dollarlik salohiyatning 9,6 foizi. BXSI ning raqamli xizmat bloki 2018-yilda 0,471 bölgan, 2025-yilda 0,396 gaça pasaygan, 2030-yilda esa 0,600 ga yetişi rejalaştirilgan.

MUHOKAMA

Kirişda ilgari surilgan gipoteza tasdiqlandi: eng noqulay holatda ham portfel NPV si ijobiy va investitsiyalar uç yildan kam vaqtda qoplanadi. Natijalar A.-M. Geourjon va hammualliflarning «kamroq tekşirib, yaxşiroq tekşiriş» ğoyasini [6] tovar

[190]Muallif hisob-kitoblari.
[191]Muallif işlanmasi; 2025-yil uçun bazaviy qiymatlar keltirilgan.

segmenti darajasida davom ettiradi. Nazorat qarori importyor hujjatiga emas, uçta mustaqil ma’lumot manbasiga tayanadi, tekşiruvning bir qismi esa çegaradan içki bozorga köçadi. Bu nazorat bilan tezlik örtasidagi ziddiyatni yumşatadi. Birinçi çora-tadbir eng yuqori natija beradi, çunki u segmentning fiskal salohiyatiga bevosita ta’sir qiladi.

E. Brynjolfsson va L. Hitt ta’kidlaganidek [7], raqamli tizim samarasi taşkiliy özgarişlarsiz töliq namoyon bölmaydi. Özbekiston bojxona tizimida ham şunday holat kuzatiladi: 2018-2025-yillarda raqamlaştirişga oid bir qator hujjatlar qabul qilingan, ammo BXSI ning raqamli xizmat bloki pasaygan. Şu sababli mexanizmda moliyaviy hisob blok darajasidagi monitoring bilan birga yuritiladi. Mexanizmning dastlabki natijasi ham xizmat körsatkiçlarida kutiladi. Samarali yuklamani oşiriş salohiyatning kiçik qismini beradi, uning asosiy qismini oliş uçun imtiyozlar tarkibini va norasmiy importni boşqariş kerak.

Ikkinçi çora-tadbir portfeldagi eng zaif böğin, çunki uning foydasi tranzit yuklar hajmiga va qöşni mamlakatlar bilan ma’lumot almaşinuviga boğliq. Şuning uçun çora-tadbirlarni quyidagi ketma-ketlikda joriy etiş taklif etiladi: 2027-yilda diler reyestri va QR markirovka, 2028-yilda xavf tahlili va narx bazasi, 2029-yilda elektron plomba. Har bir keyingi bosqiç oldingi loyihalarning haqiqiy natijalari va tejamkorligiga qarab boşlanadi.

Mexanizmni joriy etişda ikki institutsional xavf bor. Birinçisi, reyestr bozorga yangi kiriş uçun tösiqqa aylanişi mumkin. Kiritiş mezonlari oçiq bölmasa, segmentda raqobat kamayadi va narxlar oşadi. Şuning uçun mezonlar işlab çiqaruvçi vakolatnomasi va servis xizmati mavjudligi bilan çeklanişi, arizalar esa elektron şaklda qat’iy muddatda körib çiqilişi kerak. Ikkinçi xavf idoralararo ma’lumot almaşinuviga boğliq: Soliq qömitasi va sertifikatlaştiriş organi ma’lumotlari real vaqtda kelmasa, xavf tahlili eskirgan axborotga tayanib qoladi.

Hisob-kitoblarning asosiy çeklovi foyda parametrlarining muallif bahosi ekanida. Tejalgan vaqt qiymati rasmiy statistikada e’lon qilinmaydi. «Yaşil kitob» talabiga muvofiq [8] bu çeklov sezgirlik tahlili bilan qisman qoplangan, lekin çora-tadbirlar joriy etilgandan keyin parametrlarni haqiqiy ma’lumotlar asosida qayta hisoblaş kerak böladi.

XULOSA

1. Maişiy texnika importida xavflarni boşqarişning tört qatlamli mexanizmi taklif etildi. U rasmiy diler reyestri, QR markirovka va tovar modeli darajasidagi narx bazasini birlaştiradi, xavfni baholaşni subyekt darajasidan tovar modeli va narx darajasiga tuşiradi, nazoratni esa QR kod orqali içki savdo bosqiçigaça uzaytiradi.

2. Uç raqamli çora-tadbirdan iborat portfel 185,0 mlrd söm investitsiya evaziga beş yilda 207,2 mlrd söm NPV beradi (PI 2,12, qoplaniş 2,21 yil, IRR 46,3%). Eng samarali çora-tadbir sun’iy intellektli xavf tahlili va narx bazasi (NPV 131,7 mlrd söm, PI 2,55).

3. Diskont stavkasi 18 foizgaça oşib, foyda 20 foizga kamaygan holatda ham portfel NPV si 80,4 mlrd söm darajasida ijobiy qoladi; foydaning kritik kamayişi 43,4 foiz.

4. Bojxona qömitasiga 2027-yil 1-iyulgaça «Özeltexsanoat» uyuşmasi bilan birgalikda PQ-15-son qarorda sanab ötilgan 13 turdagi tovar böyiça işlab çiqaruvçi va dilerlarning elektron reyestrini «Yagona darça» tizimiga ulaş, 2028-yil 1-yanvargaça tovar modeli darajasidagi narx bazasini yaratiş hamda QR markirovka va elektron hisob-faktura ma’lumotlarini import deklaratsiyalari bilan har çorakda soliştirib boriş taklif etiladi. Iqtisodiyot va moliya vazirligiga uç çora-tadbirni 185,0 mlrd sömlik yagona portfel sifatida moliyalaştiriş tavsiya qilinadi. Mexanizm natijasi 2028-yilda segmentda inson omilisiz rasmiylaştiriş uluşining kamida 50 foizga yetişi, körik uluşining 15 foizgaça tuşişi va samarali yuklamaning 14,0 foizga çiqişi bilan ölçanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RÖYXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston bojxona sohasi xodimlariga tabrigi. (2026, 26-yanvar). https://president.uz/oz/lists/view/8878
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2025, 25-mart). Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida (PF-57-son). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/docs/-7451997
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. (2025, 25-mart). Davlat bojxona xizmati organlarining faoliyatini tashkil etish va bojxona ma’muriyatchiligini yanada takomillashtirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida (PQ-122-son). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/docs/-7452043
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. (2025, 17-dekabr). Bojxona ma’muriyatchiligi va tashqi savdo tartibotlarini yanada soddalashtirish va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida (PF-250-son). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/docs/-7934915
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori. (2024, 10-yanvar). Elektrotexnika sanoatining ishlab chiqarish va eksport salohiyatini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida (PQ-15-son). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi. https://lex.uz/docs/-6750813
6. Geourjon, A.-M., Laporte, B., Coundoul, O., & Gadiaga, M. (2012). Inspecting less to inspect better: The use of data mining for risk management by customs administrations (FERDI Working Paper No. 46). FERDI. https://ferdi.fr/dl/df-pBwYKbpMwnFKeaKVHJEPzwR5/ferdi-p46-inspecting-less-to-inspect-better-the-use-of-data-mining-for-risk.pdf
7. Brynjolfsson, E., & Hitt, L. M. (2000). Beyond computation: Information technology, organizational transformation and business performance. Journal of Economic Perspectives, 14(4), 23-48. https://doi.org/10.1257/jep.14.4.23
8. HM Treasury. (2022). The Green Book: Central government guidance on appraisal and evaluation. HM Treasury. https://assets.publishing.service.gov.uk/media/6645c709bd01f5ed32793cbc/Green_Book_2022_updated_links.pdf
9. Muqimov, A. R. (2026). Davlat budjeti daromadlarini oshirishda bojxona to‘lovlarini undirishni takomillashtirish [Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati]. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.

10. Aktamov, A. A. (2026). O‘zbekistonda budjet tushumlarini oshirishda bojxona amaliyotini takomillashtirish [Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati]. Toshkent.
11. Bobojonova, Z. (2026). “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJning singulyar va amaliy iqtisodiyotning integratsion mexanizmi asosida samaradorligini oshirish yo‘llari. Muhandislik va iqtisodiyot, 4(6).